

2022-yilning besh oyida tijorat banklarida
jismoniy shaxslarning valyuta operatsiyalari:

valyuta sotilgan
2,84 mlrd. dollar (o'sish 70%)

xarid qilingan
4,32 mlrd. dollar (o'sish 59%)

YOSHLAR OVOZI

BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

37 (16490)
2022-yil, 11-iyun
shanba

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi.uz](#)

Mahallada yoshlar yetakchisi
4-bet

"Nonisangil"
yetakchisi

Yoshlar siyosati
5-bet

Yoshlar jinoyatchiligi
oshganmi?

Minbar
7-bet

Milliy valyutamiz
ramzi milliy bo'lsin




Foto: Ziyoda RAHIMBOYEVA

YOSHLAR KENGASHINING 15-YIG'ILISHI

batafsil
3-betda

YOSHLAR BOP YANGILIKLAR:



GAROVSIZ KREDIT, SUBSIDIYA, YORDAM PULI...

Endi yoshlarga xorijiy tillarni, zamonaviy kasblar va axborot texnologiyalarini o'rganishi uchun 7 million 200 ming so'mgacha subsidiya beriladi. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-iyunda qabul qilingan "Yoshlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida yoshlarga oid bir qator yangiliklar bor.

Qaror asosida yoshlarning ilm-fan, sport, san'at va madaniyat yo'nalishlaridagi 6 oygacha muddatli o'quv kurslari uchun har oyda BHMning 1 baravarigacha, ilm-fan, sport, san'at va madaniyat yo'nalishlaridagi olimpiada, tanlov va musobaqalarning mahalliy bosqichlarida qatnashish uchun ishtirokchilarning yashash va transport xarajatlari qoplash uchun BHMning 4 baravarigacha hamda olimpiada, tanlov va musobaqalarning xalqaro bosqichlarida qatnashish xarajatlari uchun BHMning 40 baravarigacha subsidiyalar belgilangan.

BANDLIKNI TA'MINLASH – ASOSIY MASALA

Mamlakatimiz aholisining soni ortib borishi bilan bir qatorda uning mehnat bandligini ta'minlash masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu bois ishsiz yoshlarni ish bilan ta'minlashga yo'naltirilgan chora-tadbirlar yanada kuchaytirilmoqda. Mazkur qarorda bu masalaga alohida e'tibor qaratilgan.

Ya'ni bandlikni ta'minlash maqsadida 0,1 gektardan 1 gektargacha yer maydoni ajratilgan yoshlarga urug'lik va ko'chatlar xarid qilish uchun BHMning 8 baravarigacha; tadbirkorlik yoki o'zini o'zi band qilmoqchi bo'lgan yoshlarga asbob-uskuna yoki mehnat qurollarini xarid qilish uchun BHMning 40 baravarigacha subsidiyalar ajratilmoqda.

TIBBIY YORDAM KAFOLATI

Har qanday davlatning kuchi, salohiyati yordamga eng muhtoj toifadagi insonlarga ko'mak berishda ko'rinadi. Shunday bemorlar borki, bedavo dardga chalingan – butun umr o'zgalari ko'magiga muhtoj. Ayniqsa, bemor yorug' kelajakka ko'z tikkan yoshgina jon bo'lsa. Mana shu nuqtada davlat o'z vazifasini bajarishi lozim. Shu maqsadda "Yoshlar daftari"ga kiritilgan bemor yoshlarga mamlakatda yoki xorijiy davlatlarda davolanish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash uchun BHMning 50 baravarigacha, ijtimoiy himoyaga muhtoj yosh oilalarga 12 oygacha turar joy uchun ijara kompensatsiyasiga har oyda BHMning 3 baravaridan oshmagan miqdorda subsidiyalar belgilandi.

“

OLIMPIADA, TANLOV VA MUSOBAQALARNING XALQARO BOSQICHLARIDA QATNASHISH XARAJATLARI UCHUN BHMNING 40 BARAVARIGACHA SUBSIDIYALAR BELGILANGAN.

“YOSHLAR DAFTARI”DAN BERILADI

Qarorga asosan, "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarga bir necha turdagi yordam pullari belgilash nazarda tutilgan:

– **moddiy ahvoli og'ir yoshlarga** bir martalik moddiy yordam (BHMning 4 baravarigacha) beriladi;

– **yoshlarni tadbirkorlikka va kasb-hunar-ga o'qitish uchun** sarflangan xarajatlarning 75 foizigacha qismi (bir oygacha BHMning 4 baravari, bir oydan ikki oygacha BHMning 8 baravari, ikki oydan ortiq muddatli o'quv kurslari uchun BHMning 12 baravaridan ko'p bo'lmagan qismi) qoplab beriladi;

– **tadbirkor yoki o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatdan o'tgan yoshlarga** faoliyatini amalga oshirayotgan noturar joyning 12 oygacha ijara xarajatlarning bir yilda 30 foizi, biroq BHMning 25 baravarigacha bo'lgan qismi qoplab beriladi;

– **respublikadagi professional ta'lim tashkilotlarida o'qiyotgan**, shuningdek, O'zbekistondagi barcha oliy ta'lim tashkilotlarida bakalavriyatning kunduzgi, sirtqi va kechki shaklida, magistraturaning kunduzgi yo'nalishida ta'lim olayotgan o'quvchi-talabalarga to'lov-kontrakt asosida o'qish bo'yicha yillik xarajatlarning bir qismi qoplab beriladi;

– **yoshlarga ta'lim, madaniyat va san'at, sport, axborot texnologiyalar sohasiga va fanlarni o'qitishga** ixtisoslashgan nodavlat ta'lim tashkilotining 3 oy muddatgacha noturar joy ijara xarajatlari uchun BHMning 50 baravarigacha miqdorda qoplab beriladi;

– **nikohi qayd etilganiga 3 yildan oshmagan yoshlarga** yakka tartibdagi o'z xonadonida qo'shimcha uy-joy qurish uchun 33 million so'mgacha garovsiz kredit ajratiladi.

Shahrulza SATTOROVA,
"Yoshlar ovozi" muxbirlari

177

IMKONIYAT

DEHQONCHILIK UCHUN



Prezidentimizning 2021-yil 20-aprelda-gi "Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va bandligiga ko'maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bilan dehqon xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanayotgan yoshlar uchun subsidiya ajratish asoslari belgilangan.

Unga ko'ra, "Yoshlar daftari"ga kiritilgan dehqon xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanayotgan yoshlarga "Yoshlar daftari", "Temir daftar" hamda "Ayollar daftari" jamg'armalari hisobidan urug'liklar va ko'chatlarni xarid qilish uchun bazaviy hisoblash miqdorining 8 baravari miqdorigacha subsidiya ajratiladi.

Imtiyozni taqdim etish tartibi va muddatlari:

Imtiyozli toifalarga mansub shaxslar imtiyozdan foydalanish yuzasidan tuman-shahar hokimliklari, tegishli jamg'armalarning ishchi organi bo'lgan Yoshlar ishlari agentligi bo'limi, Aholi bandligiga ko'maklashish markazi yoki Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limlariga subsidiya ajratish yuzasidan murojaat qilishlari mumkin.

Murojaatga talabgor nodavlat ta'lim tashkilotlari maxsus sertifikat yoki mikrofirma va kichik korxonalar ta'sis hujjatlarini ilova qilishi lozim.

Imtiyozni qo'llash bo'yicha murojaatlar "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonunida belgilangan muddatlarda ko'rib chiqiladi.



YOSHLAR KENGASHINING 15-YIG'ILISHI

Mashhura NASRIDINOVA,
Muhammadshukur MUHAMMADJONOV,
"Yoshlar ovozi" muxbirlari

O'zbekistonning 2021-2022-yillarda Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT)ga raisligi doirasida joriy yilning 9-10-iyun kunlari Toshkent shahrida ShHT Yoshlar kengashining 15-yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yuqori darajadagi uchrashuvda ShHT Yoshlar kengashining a'zo davlatlardagi mas'ul vazirlik va idoralar rahbarlari boshchiligidagi delegatsiyalar, ShHT va Yoshlar kengashi Kotibiyat vakillari Tashkilotga a'zo davlatlar iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotida yoshlarning tutgan o'rnini oshirish masalalarini muhokama qilishdi.



Bugungi axborot asri hamda globallashuv jarayonida rivojlantirish davlatlarning iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan o'sishi va taraqqiy etishida yoshlarning o'ri e'tiborga molikdir. Negaki, hozirgi vaqtda 3,2 milliarddan ortiq aholi istiqomat qiladigan ShHTning ulkan hududida yoshlarning salmog'i 55 foizdan ko'proq.

Shu bois ShHT Yoshlar kengashining Toshkentdagi yig'ilishi dunyo jamoatchiligining e'tiborini tortmoqda. Zero, ushbu yig'ilish mintaqada yoshlarga yaratilayotgan keng imkoniyatlar, ularning intellektual salohiyatini oshirish hamda bandligini ta'minlash bo'yicha yoshlar uchun yangi dastur va loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlarni o'z ichiga olganligi bilan ahamiyatlidir.

ENG YAXSHI STARTAPCHILAR TAQDIRLANDI

Yig'ilish mazmunan rang-barangligi bilan ajralib turdi. Xususan, O'zbekiston tashabbusi bilan o'tkazilgan "Unicorn SCO: ShHT yoshlari o'rtasida eng yaxshi startap loyihalari tanlovi"ning final bosqichida startapchi yoshlarning 2 tadan, jami 50 ta eng yaxshi startap loyihalari ekspertlar guruhiga taqdim etildi.

Andijonlik O'g'ilxon Komilovning "Tibbiy yordamchi" ilova dasturi taqdimotidam ko'pchilikda qiziqish uyg'otdi. Bunday dastur O'zbekiston uchun ham kerak. Sababi Google qidiruv tizimidan biz shifokorni topishimiz mumkin, ammo ishonchli shifokor topishga qiynalamiz. Dastur O'zbekistondagi malakali shifokorlarni oson topish va ularning vaqtiga qarab qabuliga onlayn yo'zilik imkonini beradi. Shu bilan birga, malakali shifokorlar reytingini shakllantirishga ko'maklashadi.

ShHTga a'zo, kuzatuvchi va muloqot bo'yicha sherik davlatlarning iqtisodiy yoshlari o'rtasida o'tkazilgan tanlovdan ko'zlangan maqsad ham yoshlarning startap loyihalarini amalga oshirish orqali mintaqarivojiga o'z hissalarini qo'shishga ko'maklashish hamda ularning bu sa'y-harakatlarini rag'batlantirishdir.

Uch kun davom etgan tanlov g'oliblari hakamlar hay'ati tomonidan aniqlandi. Natijalarga ko'ra, eng yaxshi 10 ta startapning har biriga 10 000 AQSh dollaridan, jami 100 000 dollar investitsiya mablag'lari ajratildi.



Foto: Nosir HAYDAROV (Uza)

Tanlovda 4 nafar hamyurtimiz g'oliblikni qo'lga kiritdi: "Lemix" (Jonibek Negmurodov), "GPTuz" (Ro'zmat Safarov), "Eco-bike" (Miraziz Ne'matov) hamda "Robocontest.uz" (Adizbek Ergashev) startap loyihalari oliy o'ringa munosib deb topildi. Shuningdek, "Edversity" (Pokiston), "MapKlap" va "Mondino tracker" (Rossiya), "Pupil Mesh" (Hindiston), "Oxygen Technologies" (Belorus), "Nogiron shaxslar uchun turizm" (Qozog'iston) startap loyihalari oliy o'ringa munosib ko'rildi.

“

ENG YAXSHI 10 TA
STARTAPNING HAR BIRIGA
10 000 AQSH DOLLARIDAN,
JAMI 100 000 DOLLAR
INVESTITSIYA
MABLAG'LARI
AJRATILDI.

Shuningdek, Toshkent uchrashuvida ishtirokchilar ShHTga a'zo davlatlarda yoshlarga yaratilayotgan keng imkoniyatlar va mavjud imtiyozlarga bag'ishlangan aniq faktlar va natijalarni o'z ichiga olgan ma'ruzalar bilan tanishdi. Yoshlar sohasidagi innovatsion va ilmiy-texnikaviy hamkorlik, yosh mutaxassislar uchun o'zaro tajriba almashish maydonlarini

yaratish, ularning salohiyatini oshirish kabi dolzarb yo'nalishlarda hamkorlikni kengaytirish yuzasidan fikr almashildi.

Bugun tanlov ishtirokchilari Toshkent shahridagi "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasi va "Shon-sharaf" davlat muzeyiga tashrif buyuradi. Sayohat Hazrati Imom majmuasi ziyorati bilan yakunlandi.

MUTAXASSISLIGI BO'YICHA 5 YIL ISH STAJIGA EGA XOTIN-QIZLAR TAVSIYANOMA ASOSIDA O'QISHGA QABUL QILINADI

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 9-iyundagi "Mutaxassisligi bo'yicha kamida besh yil mehnat stajiga ega bo'lgan xotin-qizlarni davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish tartibini tasdiqlash haqida"gi qarori bilan tasdiqlangan nizomga ko'ra, mutaxassisligi bo'yicha kamida 5 yil mehnat staji mavjud, biroq oliy ma'lumotga ega bo'lmagan xotin-qizlar davlat oliy ta'lim muassasasiga alohida qabul parametrlari (jami 500 ta kvota) doirasida to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilinadi.

Bunda, o'qishga qabul qilish Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi tavsiyanomasi asosida amalga oshiriladi. Tavsiyanoma olish uchun talabgor quyidagi mezonlarning barchasiga muvofiq kelishi kerak:

- o'rta maxsus yoki professional ta'lim bo'yicha mutaxassislikka ega bo'lishi;
 - tavsiyanoma olgunga qadar oliy ta'lim olmaganligi yoki olmayotganligi;
 - o'rta maxsus yoki professional ta'lim mutaxassisligi bo'yicha 5 yillik mehnat stajiga ega bo'lishi kerak.
- Tavsiyanoma olish uchun talabgor doimiy yashash yoki vaqtincha ro'yxatda turgan joyidagi tuman (shahar) oila va xotin-qizlar bo'limlariga har yili 1-maydan 1-iyungacha ariza bilan murojaat qilishi lozim.

@alisher_sadullaev telegram kanalidan olindi.

“NONISANGIL” YETAKCHISI

UNING TAJRIBASI SIZGA HAM QIZIQ BO‘LISHI MUMKIN

Tadbirkorlik – yangi ish o‘rinlari yaratish yoxud o‘zini o‘zi band qilishda zo‘r yechim. Har holda bugungi qahramonimiz shunday deb hisoblaydi. Shu bois mahalla yoshlari yetakchisi Arslonbek oilaviy va yakka tartibdagi tadbirkorlik, ko‘chatchilik, qayonchilik, tikuvchilik kabi sohalarni rivojlantirishga bel bog‘lagan. Keling, bu haqda yaxshigina tajriba egasi bo‘lgan yetakchining o‘zidan eshitsak.



– O‘zim tadbirkorman, 2018-yildan buyon “Yosh Ibrohim” MChJ rahbariman. Hozir chorvachilik, baliqchilik va pavloniya ko‘chatini yetishtirish bilan shug‘ullanyapman. Mahallamiz yoshlariga yetakchilik qilish vazifasi menga yuklatilgandan keyin, birinchi galda ishsizlarni ish bilan ta‘minlash maqsadida ularga kichik biznesda o‘zini sinab ko‘rishni taklif qildim. Buning uchun yordamga tayyorligimni aytganman.

Masalan, mahallamizdagi yoshlardan biri Diyor Ubaydullayev ishlash niyatini bildirdi. Unga o‘z hisobimdan payvandlash va temir kesish uskunasi olib berdim. Hozir yaxshi daromad topyapti.

Yusupovlar oilasida esa xatlov jarayonida 7 nafar ishsiz aniqlandi. Ularga oilaviy tadbirkorlik qilishni taklif etdim. Oila a‘zosi Bahriniso Yusupova tikuvchilikni yaxshi bilgani bois oilaviy tikuv sexi ochildi kelishib oldik. Mahallamizning hokim yordamchisi bilan birga 4 ta tikuv mashinasini kredit asosida olib berdik. Jizzax viloyati Davlat soliq boshqarmasi rahbari esa bu oilaga 5 ta tikuv mashinasini subsidiya asosida sovg‘a qildi. Hozir tikuv sexi faoliyati to‘liq yo‘lga qo‘yildi.



Ishsiz yoshlarimizdan biri Nozima O‘razliyevaga pavloniya ko‘chatini yetishtirish bilan shug‘ullanib ko‘rishni taklif qildim. 2 yildan buyon shu soha bilan shug‘ullanganim bois, yaxshi natijaga erishishiga ishonдим. Ish boshlashi uchun unga 500 tup pavloniya ko‘chatini berdim. Unga ko‘chatlarni parvarishlashda ham tajribamni o‘rgatib, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatib kelyapman.

Yana bir yoshga quyunchilik bilan shug‘ullanish taklifini berganman. Bu biznes bilan shug‘ullanishi uchun 4 ta quyon berdim. Ishdan bo‘sh paytlari quyonlar parvarishi bilan shug‘ullanyapti. Unga ham o‘z tajribamni o‘rgatib kelmoqdaman.



Arslon UBAYDULLAYEV,
Sharof Rashidov tumanidagi
“Nonisangil” mahallasi yoshlar yetakchisi:

“

MAHALLAMIZ YOSHLARIGA YETAKCHILIK QILISH VAZIFASI MENGA YUKLATILGANDAN KEYIN, BIRINCHI GALDA ISHSIZLARNI ISH BILAN TA‘MINLASH MAQSADIDA ULARGA KICHIK BIZNESDA O‘ZINI SINAB KO‘RISHNI TAKLIF QILDIM.

Mahallamiz aholisining sportga qiziqishi baland. Shaxmat bo‘yicha mahalla yoshlari o‘rtasida turli musobaqalar uyushtiryapmiz. Bular o‘z natijasini berdi. Mahallamiz yoshlaridan Mahliyo Musurmonova sovrin jamg‘armasi 880 million so‘mlik shaxmat bo‘yicha “Yoshlar ishlari agentligi kubog‘i”ning viloyat bosqichida g‘olib bo‘ldi. 10 million so‘m pul mukofoti, bitta televizor va musobaqaning respublika bosqichiga yo‘llanmani qo‘lga kiritdi. U yakuniy bosqichga jiddiy tayyorgarlik ko‘ryapti.



Yoshlar yetakchisining so‘zlari-ga ko‘ra, 4-sektorga birlashtirilgan 5 ta mahallada birorta ham sport kompleksi yo‘q. Yaqinda viloyat hokimining yoshlar bilan uchrashuvida bu muammoni ko‘tarib chiqqan Arslonbekning taklifiga javoban “Nonisangil” mahallasida eng zamonaviy tipdagi sport maydonchasi bunyod etiladigan bo‘ldi. Mahallada 2,5 gektarlik istirohat bog‘i ham qurib berilishi aytilgan. Demak, mahallada yaqin kelajakda katta o‘zgarishlar bo‘ladi. Bu yangilikni esa, albatta, sizlar bilan bo‘lishamiz.

Iqbol PARDAYEVA,
“Yoshlar ovozi” muxbiri

EZGU TASHABBUS

Jismoniy imkoniyati cheklangan yoshlar bilan ishlash – biz, yetakchilarga yuklatilgan vazifalarning muhim qismi. Bizning mahallada 33-imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internet bo‘lib, bu muassasa bilan muntazam aloqa qilib turaman. Maktab o‘quvchilari bilan gaplashib, ularning orzu-umidlarini so‘rayman.

Maktab o‘quvchilari bu yerda turli hunarlar ham o‘rganadi. Ba‘zan ular yaratgan qo‘l mehnati mahsulini ko‘rib hayratlanaman. Sababi ularning ayrimlarini sog‘lom insonlar ham yasashi amrimahol. Men ularni qo‘llab-quvvatlash, iste‘dodini yuzaga chiqarish maqsadida maktab hovlisida xayriya tadbiri tashkillashtirdim.

Tadbirda maktab-internet o‘quvchilari tomonidan qo‘l mehnati asosida yasalgan buyumlar yarmarkasi tashkil etildi. 220 nafarga yaqin kishi qatnashgan yarmarkada qo‘l mehnati asosida yasalgan ko‘plab buyumlar sotildi. Tushgan pullarga maktab o‘quvchilarining hunarmandchilik bilan shug‘ullanishi uchun kerakli jihozlarni sotib oldik. Endi bu tadbir muntazam ravishda yo‘lga qo‘yiladigan bo‘ldi.

Bekmurod RASULOV,

Qarshi shahridagi
“Bog‘ishamol” mahallasi yoshlar yetakchisi


Mahalladagi yoshlar yetakchilarining imkoniyati cheklangan yoshlar bilan ishlash tizimini yoritib borish uchun tashkil etilgan “Imkoniyating cheksiz” loyihasiga @YO_tahririyati_bot orqali murojaat qilishingiz mumkin.

BMT VAKILI YOSHLAR BILAN UCHRASHDI



Poytaxtimizdagi “Kitob olami” majmuasida Yoshlar ishlari agentligi tashabbusi bilan BMT bosh kotibining birinchi o‘rinbosari Amina Muhammad xonim hamda iqtidorli yoshlar uchrashuvi o‘tkazildi. Tadbirda Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa‘dullayev ishtirok etdi.


O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish jarayonlariga yangi loyihalarni jalb etish va bunda BMT hamda xalqaro loyihalarning o‘rnini kengaytirish maqsadida tashkil etilgan uchrashuvda O‘zbekiston yosh-



lariga mo‘ljallangan loyihalarni sonini boyitish va ommalashtirish masalasi muhokama qilindi.

Chekka hududlarda ayollar va qizlar uchun kasb-hunar kurslarini tashkil etish, Yoshlar markazlarida kutubxonalar bunyod etishga kelishib olindi. Ta’kidlanishicha, 2030-yilga qadar BMT bilan hamkorlikda yoshlarga mo‘ljallangan NNTlar uchun kichik grantlar dasturi yo‘lga qo‘yiladi.

Muhammadshukur MUHAMMADJONOV,
“Yoshlar ovozi” muxbiri



So'nggi vaqtlarda voyaga yetmagan yoshlar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklar sodir etilishiga qarshi kurashish bo'yicha bir qancha ishlar amalga oshirilayotgan bo'lishiga qaramay, ko'rsatkichlar ijobiy emas. Xususan, joriy yilning uch oyi yakuni bo'yicha respublikada jinoyat sodir etgan jami shaxslarning 33,8 foizini yoshlar tashkil etmoqda.

Respublika bo'yicha yoshlar o'rtasida sodir etilgan jinoyatchilik o'tgan yilning 1-choragiga nisbatan 30,8 foizga oshgan bo'lib, umumiy jinoyatchilikning 19 foizi yoki deyarli har beshinchi jinoyat yoshlar hissasiga to'g'ri kelgan. Hududlar kesimida Toshkent viloyatida 100 foiz, Qoraqal-

Unga ko'ra, Mo'ynoq tumanidagi "Oq kema" oromgohi (Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati), Shahrisabz tumanidagi "Lochin" oromgohi (Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand, Buxoro va Navoiy viloyatlari), Bo'stonliq tumanidagi "Yoshlar" oromgohi (Jizzax, Sirdaryo, Toshkent viloyatlari hamda Toshkent shahri), Qurasoy shahridagi "Niho" oromgohida (Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlari) tarbiyasi og'ir, jinoyatchilikka moyil yoshlar uchun mavsumiy oromgohlar tashkil etildi.

Bundan tashqari, Mudofaa vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, Xalq ta'limi vazirligi, Yoshlar ittifoqi va Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti hamkorligida umumta'lim

Akmalbek ALIMOV,
Yoshlar ishlari agentligining Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning huquqiy savodxonligini oshirish bo'limi boshlig'i




pog'iston Respublikasida 76,8 foiz, Qashqadaryoda 44,9 foiz, Surxondaryoda 39,4 foiz, Toshkent shahrida 35 foiz, Samarqandda 26,9 foiz, Navoiyda 25,8 foiz, Sirdaryoda 21 foiz, Jizzaxda 19,3 foiz, Farg'ona-da 10,2 foiz hamda Andijonda 2,4 foizga oshgan.

Yuqoridagi ko'rsatkichlardan shuni anglash mumkinki, tarbiyasi og'ir, jinoyatchilikka moyil va probatsiya hisobida turuvchi yoshlar bilan ishlashni tizimli tashkil etish juda zarur. Shu maqsadda, Milliy gvardiya, Ichki ishlar vazirligi va Yoshlar ishlari agentligi hamkorligida tarbiyasi og'ir, jinoyatchilikka moyil bor yoshlar uchun mavsumiy oromgohlar tashkil etildi.


maktablarining 10-11-sinf o'quvchilari o'rtasida "Vatanparvarlar" harbiy-sport musobaqalari tashkil etildi. Tuman, hududiy va respublika bosqichida tashkil etilgan musobaqada 15 ming nafarga yaqin o'quvchi-yoshlar qamrab olinib, ular 6 ta shart bo'yicha o'zaro bellashdi.

Harbiy-sport musobaqasi yakunlariga ko'ra birinchi o'rinni – Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumani, ikkinchi o'rinni – Samarqand viloyati Paxtach tumani va uchinchi o'rinni – Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumani o'quvchi-yoshlar jamoalari egalladi. "Eng yaxshi mergan" nominatsiyasida Xiva shahridagi 18-maktab jamoasi a'zosi Jayxun Qurbonboyev, "Eng kuchli sportchi" nominatsiyasida Oqqo'rg'on tumanidagi 19-maktab jamoasi a'zosi Azizbek Safarboyev, "Temur tuzuklari bilimdoni" nominatsiyasida Termiz tumanidagi 16-ixtisoslashtirilgan maktab jamoasi a'zosi Ubaydullo Xo'jabekov g'oliblikni qo'lga kiritdi.



BO'LAJAK FUTBOL YULDUZLARI

Har qanday odat bolalikdan shakllantirilsa, u hayot tarzining bir bo'lagiga aylanadi. Sport bilan shug'ullanish ham bolalikdan boshlansa, yaxshi natijalarga erishish mumkin. Shu maqsadda O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi qoshidagi "Kamalak" bolalar tashkiloti "Bolalar ligasi" mini futbol sport musobaqasini tashkil etdi.



Bolalar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, ularning sportga qiziqishlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan turnir O'zbekiston yoshlar ittifoqi hamda bir qator vazirlik va tashkilotlar hamkorligida o'tkazildi. Bellashuvda jami 101 304 nafar yosh qatnashgan musobaqaning ko'lami naqadar keng bo'lganini ko'rsatmoqda.

Samarqand viloyatidagi "Dinamo" futbol o'yinida bo'lib o'tgan finalda – mahalla, sektor, viloyat bosqichlarida g'oliblikni qo'lga kiritgan 14 ta jamoa o'z hududi sharafini himoya qilish uchun maydonga tushdi.

Shiddatli finalda Andijon viloyati jamoasi birinchilikni qo'lga kiritdi. Keyingi o'rinlarni esa mos ravishda Toshkent shahri va

Navoiy viloyatining yosh futbolchilari egalladi.

G'olib va sovrindorlarga 1, 2, 3-darajali diplom, kubok, maxsus medallar to'plami va sport anjomlari jamlanmasi taqdim etildi. Ishtirokchilar "Eng yaxshi murabbiy", "Eng yaxshi darvozabon", "Eng yaxshi to'purar", "Eng yaxshi hujumchi", "Fair play" nominatsiyalari bo'yicha ham taqdirlandi.

Bo'lajak futbol yulduzlari yangi orttirgan do'stlari bilan Samarqand shahri bo'yab sayohatga ham chiqishdi. Bundan tashqari, O'zbekiston futbol yulduzlari bilan uchrashuv, kechki madaniy dasturlar hamda "Bolalar ligasi Quiz" loyihasi yoshlarda katta taassurot qoldirdi.

Lobar QODIROVA,
"Yoshlar ovozi" muxbiri

TALABALAR TALABALIK DAVRIDAN ROZIMI?

Talabalik – inson hayotidagi eng katta baxtlardan biri. Kelajagi uchun ma'lum sohani tanlash, kasb egasi bo'lish uchun oliy ta'lim olish hammaga ham nasib etavermaydi. Inson talabalik paytida do'stlar topadi, yangi bilimlarga ega bo'ladi, mustaqil qaror qabul qilish va yashashga o'rganadi, umumiy qilib aytganda – ulg'ayadi. Universitet yoki institutda o'tgan 4–5 yil davomida kishi barcha bilimlarning egasiga aylanmasa-da, har holda ozmi-ko'p o'rganishga ulguradi.

O'tgan 3 yil mobaynida koronavirus infeksiyasi tarqalishi natijasida yuzaga kelgan karantin talabalar hayotiga ham katta ta'sir o'tkazdi. Kimdir vaziyatdan foydalanib qo'shimcha sohalarni o'rgandi, kimdir esa karantin tugashini kutib vaqtini behuda o'tkazib yubordi.

Yaqin kunlarda o'quv yiliga yakun yasalib, bitiruvchilar yangi hayot sari qadam qo'yadi. Qiziq, ular talabalik davrida o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga qay darajada erishdi? Nima topdi-yu, nimani boy berdi? Kelajakdagi rejalari qanday?




Shahribonu RAHMATOVA

Nafisa MUHAMMADALIYEVA,
O'ZDJU xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi 4-bosqich talabasi



“CHET TILINI O'RGANSAM BO'LAR EKAN...”

– Hammasi ajoyib! Universitetda o'tgan to'rt yillik umrim hayotimdagi eng katta saboqlarni berdi. Bu yerda o'z kasbini sevadigan, bilimli ustozlarimizdan ko'p narsani o'rgandik. Lekin o'qish davomida mutaxassislik fanlarini chuqurroq o'rganish o'rniga, ko'pincha “ikkinchi darajali fanlar”ni o'qish bilan mashg'ul bo'ldik. Valiologiya, falsafa, ekologiya va yana bir qancha, hatto nomini ham bilmaydigan fanlarimdan uxlamasdan dars tayyorlashimga, “konspekt” yozishimga to'g'ri kelgan paytlar ko'p bo'ldi. Bahoning ortidan quvlab shuncha vaqtimni bekor sarflagandan ko'ra birorta chet tilini o'rgansam bo'lar ekan. Universitetga kirgan paytimda maqsadlarim ko'p edi, ammo ulardan qaysi biri amalga oshdi degan savolga javob berishga qiynalaman, afsuski. Kelajakda sevimli ustoz bo'lishni maqsad qilib qo'rganman. Asl o'qituvchi bo'lish uchun o'qishdan, o'rganishdan to'xtamayman.



OLY TA'LIM – KATTA HAYOT MAKTABI

– Oliy ta'lim menga yangi bilimlar, yangi do'stlar, tanishlar, unutilmas onlarni berdi. Hayotda o'z yo'lini topishni, jamoa bilan ishlashni o'rgatdi. Tom ma'noda o'zimni kashf etishimga sabab bo'ldi. Institutga kirganimga talabalar o'rtasida e'lon qilinadigan turli xil tanlovlar, grantlarda ishtirok etishni, “Work and travel” dasturi orqali xorijga chiqishni, tengdoshlarim bilan fikr almashishni, yangi joylarni ko'rish, sayohat qilish, dunyoqarashimni kengaytirishni niyat qilgan edim. Pandemiya sabab “work and travel” bo'yicha safarlar qolib ketdi. Yangi tashkil etgan loyihamiz ham chala qoldi. Erisha olmaganlarim uchun kimnidir yoki nimanidir aybdor qilishdan yiroqman. Erishganlarim uchun menga bilim bergan o'qituvchilarimdan minnatdorman. Kelajakda kuchli iqtisodchi bo'lish, ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish, chet elda magistratura bosqichida o'qish niyatim bor. Boshqa talabalarga maslahatim, faqat o'qing, o'z ustingizda ishlang, yaxshi va katta niyatlar qiling. Oliy ta'lim – katta hayot maktabi. Eng zo'r, eng qadri, unutilmas, ko'p o'qiydigan, o'z ustingizda ishlaydigan, diniy, dunyoviy va kasbiy bilimlarni egallaydigan davr. Qadriga yeting!

Xondamir MUHAMMADJONOV,
Andijon mashinasozlik instituti iqtisodiyot yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Yurtimizda har yili minglab talabalar o'qishni tugatib, qo'lga diplom oladi. Ayrim bitiruvchilar talabalik davridanoq mutaxassisligi bo'yicha ishlashni boshlaydi, yana ayrimlar 4 yil davomida ham o'qiyotgan sohasiga mehr qo'ya olmaydi. Kelgusida esa umuman boshqa yo'nalishda faoliyat yuritib ketadi.

Muhimi, o'qish davomida qo'ldan kelganicha harakat qilish va qaysi sohada bo'lsa ham, yangi bilimlarni o'rganish zarur. Shunday ekan, umringizning mana shu yillarini, har bir soniyani g'animat bilib, izlanishga, o'rganishga, hayot savollariga javob topishga sarflang. Shunda talabalik davri chinakam oltin davrga aylanadi.

“KONSALTING XIZMATIDAN QO'NG'IROQ QILYAPMIZ!”

SIZ NIMA DEYSIZ?



Chet elda hech qanday imtihonsiz, tez va oson talaba bo'lish. Quloqqa yoqimli eshitiladi. Bu sohada ishlamagunimcha men uchun ham bu so'zlar jozibali edi.

Vazifam, menejer sifatida telefonda mijozlarga xizmatlar haqida ma'lumot berish edi. Kompyuterga yangi “LID”(ya'ni raqam)lar beriladi. Menejer ularga qo'ng'iroq qilib, kompaniya xizmatlari haqida ma'lumot beradi. Shu orqali o'ziga mijozlar bazasini to'playdi.

Avvaliga bu vazifa menga odatiy holdek tuyuldi: hamma mijozga bir xil ma'lumot berib, ularni qiziqitirish, bo'ldi. Qancha ko'p yoshni jalb qilsak, shuncha daromad olamiz. Mijozlar esa kompaniya to'lovi hamda kontrakt summasini to'lab, MDH va Yevropadagi nufuzli universitetlarning talabasiga aylanishi mumkin.

Daf'atan o'ylab qoldim: bu xizmat shunchalik zo'r ekan, o'zim nega undan foydalanmayman? Chuqurroq tahlil qilib bildimki, bu xizmat men o'ylaganchalik yaxshi emas ekan. Demak, yoshlarga telefon qilib, ularga “qarmoq tashlayotgan”, ochiqrog'i aldayotgan ekanman. Shundan so'ng bu ish-dan voz kechdim.

XULOSALARIM

Xizmatning foydali jihatlari ham bor. Masalan, bir necha yildan buyon o'qishga kira olmayotganlar uchun yaxshi imkoniyat, xorij hamda O'zbekistondagi ta'limni solishtirishga ham qulay fursat. Birinchi bosqichni tugatgach, O'zbekistonga “perevod” qilish imkoni, oliy ma'lumotlilar safining kengayishi, korruptsiyaning kamayishi. Shu bi-



lan birga, tanganing ikkinchi tomoni ham bor: ta'lim sifatining pasayishi, talabalar o'rtasida tabaqalanish kabi holatlar yuzaga kelishi mumkin. Shu o'rinda mazkur xizmatlardan foydalangan hamyurtlarimiz fikri bilan qiziqdik.

Dilnoza RAHMANOVA,
O'ZJOKU talabasi:

– Yoshim o'ttiz beshda. Qariyb uch yil o'qishga tayyorlandim. Ammo kira olmadim. So'ngra bir konsalting kompaniyasi orqali Tajikistonga o'qishga topshirdim. Oradan bir yil vaqt o'tgach 110 ball bilan O'zbekistonga “perevod” qilib oldim. Shu yo'l bilan talaba bo'ldim.

Husniya ABDURASULOVA,
Bo'ka tumani:

– Hech qanday bilimim bo'lmasa, eng zo'r xizmat turlari ham yordam qilolmas ekan. Bilimsiz chetdagi universitetga hujjat topshirish foydasiz. Tayyorlanishga ketadigan vaqtimni qizg'aniq Qirg'izistonga hujjat topshirdim. Ammo mana ikki yildirki “perevod” imtihonlaridan o'ta olmadim. So'ng yetmagan ikki ballga super kontrakt to'lab o'qishimni Chirchiq davlat pedagogika universitetiga ko'chirib oldim. Talaba bo'lishning birgina halol yo'li o'qib, ilm olish ekan, baribir.

Dilnoza HAMDAMOVA,
talaba

MILLIY VALYUTAMIZ RAMZI MILLIY BO'LSIN

S

Yaqinda matbuotda o'zbek valyutasi ramzini ishlab chiqish bo'yicha tanlov yakunlanganligi bildirildi. Rasmiy xabarda aytilishicha, tanlovda 508 loyiha ishtirok etgan, loyihalarni baholashda Hakamlar hay'ati: "o'ziga xoslik (unikal), originallik; universallik; oson tanib olinishi; ramziy va farqli jihatlari; so'm ramzining turli formatlarda grafik qo'llanilishining qulayligi" kabi mezonlarga tayanagan. Bizningcha, **milliy** valyuta ramzini tanlashda uning asosiy sifati – **milliyligi** ham inobatga olinsa, yaxshi bo'lardi. Chunki milliy valyutani qadrlaydigan shu millat, shu xalq, boshqa bir xalq uchun u hech qachon qadri bo'lolmaydi. Xalqimiz uni qadrlashi, o'zini deb bilishi uchun esa u xalqqa yaqin bo'lishi kerak.

Tanlovda g'olib topilgan loyiha ijtimoiy tarmoqlarda ancha bahsga sabab bo'ldi, ko'pgina ziyolilarimiz o'zbek so'mining bo'lajak ramziga o'z munosabatlarini bildirishdi. Afsuski, bir qarashda ilonni eslatadigan bu belgi ko'pchilikka ma'qul

kelmadi. Bildirilgan fikrlarning barchasi salbiy, shaxsan men birorta ham ijobiy taqrizga duch kelmadim.

Ustiga-ustak, g'olib topilgan ramz tanlov mezonlarida belgilanganidek "o'ziga xos (unikal), original" emas ekan, ramz e'lon qilingach, uning Fransiyadagi In-Core Systemes kompaniyasi ramzining aynan ko'chirmasi ekanligi, qolaversa, shunga o'xshash boshqa logotiplar ham borligi ma'lum bo'lib qoldi. Agar so'm uchun shu ramz qabul qilinsa, In-Core Systemes kompaniyasini yoki boshqasini ko'chirmachilikda ayblab sudga bermasligiga kafolat yo'q. Bu esa milliy valyutamiz, qolaversa, mamlakatimiz sha'ni uchun yaxshi bo'lmaydi.

Turkiy xalqlar uchun ramz, tamg'alar yot usur emas. Qadimda har bir qavm, qabila o'z tamg'asiga ega bo'lgan. Xususan, Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'otit-turk"da o'g'uz qabilalarining yigirma ikki tamg'a-ramzlarini keltiradi. Shunday ekan, milliy valyutamiz ramzi ham zamonaviy bo'lish bilan birga, ana shu tarixiy an'analarimizni ham o'zida mujassam etsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Ko'pgina davlatlar pul birligi ramzi uchun asos qilib o'sha valyuta nomining birinchi harfi olingan. Shu nuqtai nazardan, men o'zbek so'mi uchun lotincha "s" harfi asosida yaratilgan ramzni emas, balki qadimgi turk (O'rxun-enasoy) yozuvidagi "s" tovushini ifodalovchi belgini taklif etmoqchiman (I-rasm). Yuqorida tilga olingan tanlov mezonlaridan kelib chiqadigan bo'lsak, qadimgi turk

yozuvidagi bu belgining "o'ziga xosligi, unikalligi" shundaki – avvalo u lotincha "s"ga shaklan juda o'xshash, bu belgi qadimgi so'g'd yozuvi orqali turk alifbosiga o'tgan bo'lishi va lotincha "s" bilan bir ildizga borib taqalishi ham mumkin. Ikkinchidan, belgining "s"ga o'xshash qismidan "o'sib chiqqan" chiziqcha xuddi oldinga va yuqoriga qarata tortilganday ko'rinadi, bu esa oldinga intilish va o'sish ko'rsatkichi singari optimistik ruh bag'ishlaydi. Uchinchidan, bu harfni qadimgi turk yozuvidagi "s" tovushini bildiruvchi belgi sifatida ham, lotincha zamonaviy "s" deb ham o'qish mumkin. Albatta, bu belgini ramz sifatida qabul qilish uchun unga biron ishlav berish, qadimgi turk yozuvidagi harf va "s" oralig'idagi shakliga keltirish mumkin.

Agar so'mimiz ramzi qadim ajdodlarimiz asrlar davomida qo'llab kelgan ilk turk yozuvidagi mazkur harf asosida yaratilsa, u chuqur tarixiy ildiz, ma'no kasb etish bilan birga go'zal zamonaviy ko'rinishga ham ega bo'ladi.

Abduvohid HAYIT,
filologiya fanlari nomzodi



AQLDAN OZDIRAYOTGAN O'YIN

"Pubg" video o'yini hozir eng ommalashayotgan o'yinlardan hisoblanadi. Unga bolalar va o'smirlar, hatto kattalar ham qaram bo'lib bormoqda. Sir emas, "Pubg" ishqibozi virtual olamda yashaydi, faqat vaqti-vaqti bilan "oflayn" rejimga o'tadi. Kuzatishlardan ma'lum bo'lyaptiki, bu o'yin inson ruhiyatini uchun xavfli degan fikr tobora kuchayib bormoqda.

O'yin haddan tashqari zo'ravonlikdan iborat, o'yinchining ruhiyatiga ta'sir qiladigan tajovuzkor fikrlar, his-tuyg'ular va xatti-harakatlarini qo'zg'atishi mumkin. O'yinning mobil versiyasi bo'lgani uchun aksariyat o'yinchilar kun bo'yi "Pubg" o'ynashadi. Bu esa ijtimoiy passiv shaxslar safi kengayishiga olib keladi. Bir joyda o'tirib, uzoq vaqt davomida o'yin o'ynash salomatlik uchun ham yaxshi emas.

Zarnigor ESHPO'LATOVA,
O'zDJTU talabasi

EKRANDA – TO'Y MASHMASHASI



O'zbek kinolariga nisbatan tomoshabinlar jiddiy e'tirozlar bildirib kelgani hech kimga sir emas. Balki buning sababi ularning saviyasi pastligi yoki yot g'oyalarning bilib-bilmay targ'ib qilinyotganidir?

Ammo bugun ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanmoqda, milliy kino san'atimizda yosh va umidli ijodkorlar bir qancha yangiliklarga qo'l

urmoqda. Shulardan biri sifatida "Spectre" kinostudiyasi tomonidan suratga olingan, komediya janrida ishlanib, tomoshabinni ham kuldirib, ham yig'lata olgan "Bir kunlik to'y" kinokomedyasidir.

Baxtiyor Turg'unov, Xayrulla Sa'diyev, Matyoqub Matchonov, Muhabbat Abdullayeva, Anvar Nazarov, Asal Abdullayeva, Sitora Farmonova, Shohrux Hamdamov, Muhammadjon Bobojonov, Anvar Salimov kabi ustoz va umidli aktyorlar ijro etgan rollarda bugungi kunda arzimaddek ko'ringan, biroq og'riqli muammolar va ularga duch kelayotgan odamlar obrazi mahorat bilan gavdalantirilgan. O'zbek to'ylaridagi hashamatga intilish va ayrim streetiplar sabab duch kelinayotgan muammolar tasviri sizni ham befarq qoldirmasdan, mulohazaga undashi aniq!

Muslima A'ZAMOVA,
O'zDJTU talabasi



ISH HAQI – HAYOT MAZMUNI...

Bir nechta oydan buyon ijtimoiy tarmoqlardagi ish e'lonlari berib boruvchi kanal va guruhlarni kuzatyapman. Afsuski, ishchilarga taklif qilinayotgan ish haqi va sharoitlar talabga javob bermaydi.

O'g'ir bo'lishiga qaramay, deyarli barcha ishlar uchun mehnat haqi 1 million so'm atrofida. Diplom yoki malaka talab qilinadiganlari esa 1 million 500 ming so'mdan 3 million so'mgacha maosh va'da qilmoqda. Chetdan qaraganda hammasi yaxshidek, biroq dam olish kunlarining yo'qligi, ish vaqti sakkiz soatdan ko'pligi, buning ustiga, huquqiy savodxonlikning nihoyatda pastligi juda og'riqli. Bu maosh bilan ro'zg'or atalmish g'orni to'ldirish mumkinmi yoki yo'q, buni bir chetga qo'ya turaylik.

So'nggi paytlar bir shior tez-tez quloqqa chalinib qolyapti: "Ilmga tikilgan sarmoya eng yaxshi sarmoyadir". Balki bu gap ayni haqiqatdir, biroq arzimagan oylik evaziga ishlayotgan, fikr-u xayoli vazomini to'yg'azish bilan band inson qanday qilib qo'shimcha o'quv kurslari uchun pul sarflashi mumkin?

Atrofga boqib, kelajak ertalari – yoshlarning jiddiy o'ylab ko'rishi, tafakkur qilishi kerak bo'lgan og'riqli muammolari ko'p ekanini ko'raman. Ammo afsuski, bugun ularning ko'pchiligining fikr-u zikrini ijtimoiy tarmoqlar, mobil o'yinlar va qanday qilib tez boyib ketish haqidagi xom-xayollar egallab olgan!

Umida UMAROVA,
O'zDJTU talabasi



Iste'dodni
birga o'stiramiz...

Manzil: Toshkent sh. Qatortol k. 60-A uy
Telefon: +99888 135 54 44
E-mail: yoshijodkor@gmail.com



**YOSH
IJODKORLAR
KENGASHI**



YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:
**Hamza
ABDULLAYEV**

Muassis:
O'zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:
**Muhammadshukur
MUHAMMADJONOV**

Musahhihlar:
**Rashid XO'JAMOV,
Qirmizoy HAKIMOVA**

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ruyxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida tarildi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (71) 233-22-16, (71) 236-79-95.

"Sharq" nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-3 formatda chop etildi. Hajmi - 2 bosma tabaq. Korxonalar manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indeks: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-655, Adadi - 10584. Bosishga topshirish vaqti - 21.00. Topshirildi - 20.00.

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

